

- Federatsiya tizimida amalda bo'lgan me'yoriy hujjatlarga asosan ijtimoiy sug'urta byudjeti mablag'lari va kasaba uyushmasiga a'zolik badallari hisobidan xodimlar va ularning oila a'zolarini sog'lomlashtirishga ajratilgan mablag'lar maqsadli sarflanishini ta'minlaydi;

- kasaba uyushmasi xizmatidagi boshlang'ich tashkilotlar ro'yxatini yuritadi;

- yuqori kasaba uyushmasi organi bilan kelishgan holda, kasaba uyushmasi byudjeti mablag'lari hisobidan tadbirkorlik tuzilmalarini tashkil qilishi mumkin;

- Tuman Kengashi (tuman Birlashgan qo'mitasi) majlisini chaqirish to'g'risida qarorlar qabul qiladi, majlis o'tkazish kunini belgilaydi va kun tartibi yuzasidan takliflarni kiritadi;

- Tuman Kengashi (tuman Birlashgan qo'mitasi)ning ish rejasini tasdiqlaydi va bajarilishini tashkillashtiradi;

- Tuman bo'linmasi (tuman Birlashgan qo'mitasi) konferensiyasiga saylangan delegatlarga tuman Kengashi Ijroiya qo'mitasi (tuman Birlashgan qo'mitasi rayosati) nomidan guvohnomalar beradi;

- zarurat tug'ilgan (o'z xoxishiga ko'ra lavozimidan ozod etish haqida ariza bergan, sog'ligi tufayli vazifalarini bajara olmay qolgan, boshqa ishga o'tgan) hollarda Tuman Kengashi (tuman Birlashgan qo'mitasi) raisi, rais o'rinbosarini lavozimidan ozod etish to'g'risida qaror qabul qilishi mumkin;

- Federatsiya tizimida amalda bo'lgan me'yoriy hujjatlarga muvofiq kasaba uyushma xodimlari hamda faollarini moddiy va ma'naviy rag'batlantirish, yuqori kasaba uyushmasi tashkilotlarining Faxriy yorliqlari, nishonlari bilan taqdirlashga tavsiya etish bo'yicha qarorlar qabul qiladi;

Tuman Kengashi (tuman Birlashgan qo'mitasi) vakolat bergan boshqa vazifalarni amalga oshiradi.

8.12. Tuman bo'linmasi (tuman Birlashgan qo'mitasi) faoliyatini qayta tashkil etish yoki tugatish Ijroiya qo'mita yoki tuman bo'linmasi (tuman Birlashgan qo'mitasi) konferensiyasining qaroriga muvofiq amalga oshirishi mumkin.

Konferensiya qarori kvorum mavjud bo'lganda, delegatlarning uchdan ikki qismi qo'llab-quvvatlaganda qabul qilingan hisoblanadi va kuchga kiradi.

Bunday holda tugatish komissiyasi tarkibi tuman bo'linmasi (tuman Birlashgan qo'mitasi) faoliyatini tugatish haqida qaror qabul qilgan organ tomonidan tasdiqlanadi.

8.13. Tuman bo'linmasi (tuman Birlashgan qo'mitasi) faoliyati tugatilgan holda barcha moliyaviy majburiyatlar bajarilganidan so'ng qolgan mol-mulki va mablag'lari Ustavda belgilangan maqsadlarga sarflash uchun Respublika kengashiga o'tkaziladi.

## **IX. QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI, VILOYATLAR VA TOSHKENT SHAHAR KASABA UYUSHMASI XUDUDIIY BO'LINMALARI**

9.1 Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar kasaba uyushmasi xududiy Birlashgan qo'mitalari (kengashlari), (bundan keyingi o'rinlarda "Xududiy kasaba uyushmasi bo'linmalari" deb yuritiladi) yuridik shaxs maqomiga

ega bo'lgan tarmoq kasaba uyushmasining alohida o'z ma'muriy xududidagi bo'linmalari hisoblanib, tegishli ma'muriy-xududiy tuzilmalarda kasaba uyushmasi manfaatlarini ifodalaydi.

Xududiy kasaba uyushmasi bo'linmalari kasaba uyushmasi a'zolarining ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy va kasbiy manfaatlarini himoya qilish samaradorligini oshirish, boshlang'ich kasaba uyushmasi tashkilotlarining hamda birlashgan, tuman (shahar) kasaba uyushmasi bo'linmalarining salohiyatini yuksaltirish va ularning harakat birligini mustahkamlash maqsadida tuziladi.

9.2. Xududiy kasaba uyushmasi bo'linmalarini tuzish, qayta tashkil etish va tugatish kasaba uyushmasi Respublika Kengashi Ijroiya qo'mitasi qarori bilan amalga oshiriladi.

9.3. Xududiy kasaba uyushmasi bo'linmalari:

Ustavda belgilangan vazifalarni, kasaba uyushmasi yuqori organlari qarorlarini bajarish bo'yicha o'z faoliyatini amalga oshiradi;

ijtimoiy hamkorlar o'rtasida tuzilgan Bosh jamoa kelishuv hamda tarmoq kelishuvlarining viloyat xududida bajarilishini nazorat qiladi;

xududni ijtimoiy va iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlarini ishlab chiqishda hamda mehnat, ish haqi me'yorlari masalalarini hal etishda qatnashadi;

davlat va xo'jalik boshqaruv organlari tizimida xodimlarning huquq va manfaatlariga aloqador masalalarni ko'rib chiqishda ishtirok etadi;

fuqarolarni kasaba uyushmasi a'zolikiga qabul qiladi va a'zolikdan chiqaradi;

yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan va bo'lmagan tegishli boshlang'ich kasaba uyushmasi tashkilotlarini hisobga oladi va hisobini yuritadi;

tegishli xudud doirasida kasaba uyushmasi manfaatlarini ifodalaydi va amalga oshiradi;

kasaba uyushmasi a'zolarining ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy va kasbiy manfaatlarini himoya qilish samaradorligini oshirish choralari ko'radi;

boshlang'ich kasaba uyushmasi tashkilotlari hamda kasaba uyushmasi Birlashgan qo'mitasi, tuman (shahar) kasaba uyushmasi tashkilotlariga uslubiy-amaliy yordam ko'rsatadi va ularning faoliyatini muvofiqlashtiradi;

boshlang'ich kasaba uyushmasi tashkilotlari hamda kasaba uyushmasi Birlashgan qo'mitasi, tuman (shahar) kasaba uyushmasi tashkilotlarining harakat birligini mustahkamlaydi.

9.4. Quyidagilar xududiy bo'linmaning rahbar organlari hisoblanadi:

- Konferensiya — oliy rahbar organi;

- xududiy Kengash — konferensiyalar oralig'ida doimiy harakatdagi kollegial rahbar organi;

- xududiy Kengash Ijroiya qo'mitasi — konferensiyalar oralig'ida doimiy harakatdagi kollegial ijroiya organi;

- xududiy bo'linmaning taftish komissiyasi — faoliyatini kollegiallik asosida amalga oshiruvchi nazorat organi.

9.5. Xududiy bo'linmaning konferensiyasi tegishlicha xududiy Kengash tomonidan besh yilda kamida bir marta chaqiriladi.



Konferensiyani o'tkazish sanasi va kun tartibi haqida kamida bir oy oldin ma'lum qilinadi. Konferensiyaga vakillik me'yorlari, ularni saylash tartibi tegishli xududiy Kengash tomonidan belgilanadi.

Xududiy Kengash konferensiyani o'tkazishning aniq sanasini belgilash vakolatini tegishincha xududiy Kengash Ijroiya qo'mitasiga berishi mumkin.

9.6. Navbatdan tashqari konferensiya xududiy Kengash (xududiy Birlashgan qo'mita)ning kasaba uyushma xizmatida bo'lgan boshlang'ich tashkilotlardagi kasaba uyushmasi a'zolarining kamida uchdan bir qismining talabiga muvofiq, xududiy Kengashning o'z tashabbusiga ko'ra yoki Ijroiya qo'mitaning qaroriga muvofiq chaqirilishi mumkin.

Bunda konferensiyani o'tkazish sanasi hamda kun tartibi, vakillik me'yorlari va ularni saylash tartibi to'g'risida qaror konferensiyani chaqirayotgan kasaba uyushmasi organi tomonidan, konferensiya o'tkazilishidan kamida o'n besh kun oldin e'lon qilinadi.

9.7. Konferensiyaning vakolatlari quyidagilardan iborat:

- xududiy Kengash faoliyati to'g'risidagi hisobotlarini eshitish va tasdiqlash;
- xududiy Kengashning tarkibini saylash;
- xududiy Kengash raisini saylash;
- xududiy Kengash taftish komissiyasining tarkibini hamda raisini saylash;
- belgilangan vakillik me'yoriga muvofiq yuqori kasaba uyushmasi tashkiloti konferensiyasi, Qurultoyiga delegatlarni saylash;
- yuqori kasaba uyushmasi tashkiloti organlari tarkibiga nomzodlarni tavsiya qilish (saylash);
- xududiy Kengash faoliyatiga oid muhim masalalar bo'yicha qarorlar qabul qilish.

Konferensiya qonun hujjatlarida belgilangan boshqa vakolatlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Xududiy bo'linma raisi (rais o'rinbosari) lavozimiga ko'ra xududiy bo'linma konferensiyasining delegati hisoblanadi.

9.8. Xududiy Kengash majlislari bir yilda kamida bir marta, tegishli xududiy Kengash Ijroiya qo'mitasi qarori bilan chaqiriladi. Majlisni o'tkazish sanasi, joyi va kun tartibi loyihasi haqida kamida 3 kun avval ma'lum qilinadi.

9.9. xududiy Kengashning vakolatlari:

- yuqori kasaba uyushmasi organlari tomonidan qabul qilingan qarorlar ijrosini ta'minlaydi;
- xududiy Kengash Ijroiya qo'mitasining faoliyati to'g'risidagi hisobotlarini eshitish va natijalari yuzasidan tegishli qaror qabul qilish;
- xududiy Kengash a'zolari orasidan xududiy Kengashi Ijroiya qo'mitasini saylash, ularning son tarkibini belgilash;
- xududiy bo'linma raisi o'rinbosarini saylash va lavozimidan ozod qilish majlislari oralig'ida xududiy bo'linma raisi o'rinbosarini saylash;
- zarurat tug'ilgan (o'z xoxishiga ko'ra lavozimidan ozod etish haqida ariza bergan, sog'ligi tufayli vazifalarini bajara olmay qolgan, boshqa ishga o'tgan) hollarda xududiy bo'linma raisini lavozimidan ozod etish va yangi raisni saylash (bunga zarurat bo'lmaganda esa uning vazifasini o'rinbosar bajaradi);



- yuqori kasaba uyushmasi tashkiloti organlari tarkibiga saylangan vakillarini chaqirib olish va yangi vakilni yo'llash to'g'risida qaror qabul qilish.

#### 9.10. Xududiy Kengash Ijroiya qo'mitasi:

- xududdagi tegishli ish beruvchilar, idoralar bilan jamoa muzokaralarini tashkil qiladi, ijtimoiy-iqtisodiy masalalar bo'yicha Bosh jamoa kelishuvi, tarmoq kelishuvlari asosida xududiy tarmoq kelishuvlari tuzilishini hamda ularda belgilangan xududiy bo'linmaning majburiyatlari bajarilishini ta'minlaydi, ushbu kelishuvlar bajarilishi ustidan jamoatchilik nazoratini olib boradi;

- qonunchilikda belgilangan tartibda ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklarini tekshirishda, tibbiy-mehnat ekspert komissiyasi majlislarida, mehnat nizolari bo'yicha komissiyalarning ishtirok etadi;

- ish beruvchilar tomonidan xodimlarning ijtimoiy-iqtisodiy huquq va manfaatlariga taalluqli bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar hamda texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga rioya etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini ish o'rinlarida amalga oshiradi;

- tarmoq kasaba uyushmasining xududdagi boshlang'ich tashkilotlari, birlashgan qo'mitalar, tuman bo'linmalarining faoliyatini o'rganadi, zarur hollarda o'rganish yakunlarini o'z majlislarida ko'rib chiqib, tegishli qarorlar qabul qiladi;

- o'rnatilgan tartibda xududiy Kengashning sarf-xarajatlar сметasini tasdiqlaydi va ijrosini ta'minlaydi;

- amaldagi me'yoriy hujjatlarga asosan ijtimoiy sug'urta byudjeti mablag'lari va kasaba uyushmasiga a'zolik badallari hisobidan xodimlar va ularning oila a'zolarini sog'lomlashtirishga ajratilgan mablag'lar maqsadli sarflanishini ta'minlaydi;

- xududdagi boshlang'ich tashkilotlar ro'yxatini yuritadi;

- tarmoq kasaba uyushmasining xududdagi boshlang'ich tashkilotlari, birlashgan qo'mitalar, tuman bo'linmalarida hisobot-saylovlar yig'ilishlari (konferensiyalari), respublika darajasidagi ko'rik-tanlovlarning xududiy tarmoq bosqichlari o'tkazilishini muvofiqlashtirib boradi;

- yuqori kasaba uyushmasi organi bilan kelishgan holda, kasaba uyushmasi byudjeti mablag'lari hisobidan tadbirkorlik tuzilmalarini tashkil qilishi mumkin;

- xududiy Kengash majlisini chaqirish to'g'risida qarorlar qabul qiladi, majlis o'tkazish kunini belgilaydi va kun tartibi yuzasidan takliflarni kiritadi;

- xududiy Kengash ning ish rejasini tasdiqlaydi;

- zarurat tug'ilgan (o'z xoxishiga ko'ra lavozimidan ozod etish haqida ariza bergan, sog'ligi tufayli vazifalarini bajara olmay qolgan, boshqa ishga o'tgan) hollarda xududiy bo'linma raisi, rais o'rinbosarini lavozimidan ozod etish to'g'risida qaror qabul qilishi mumkin;

- kasaba uyushmasi xodimlari hamda faollarini moddiy va ma'naviy rag'batlantirish, yuqori kasaba uyushmasi tashkilotlarining Faxriy yorliqlari, nishonlari bilan taqdirlashga tavsiya etish bo'yicha qarorlar qabul qiladi;

Xududiy Kengash vakolat bergan boshqa vazifalarni amalga oshiradi.

9.11. Xududiy bo'linma raisi xududiy bo'linmaga rahbarlik qiladi, bir vaqtning o'zida tegishli xududiy Kengash va xududiy Kengashi Ijroiya qo'mitasi ning raisi hisoblanadi.



Xududiy bo'linma raisi:

- xududiy bo'linmaning oliy va kollegial rahbar organlari oldida hisob beradi;
- xuddagi davlat hokimiyati organlari, ish beruvchilar birlashmalari va boshqa tashkilotlarda, ommaviy axborot vositalarida xududiy bo'linma nomidan ish ko'radi;

- ish beruvchilar va ularning birlashmalari, davlat hokimiyati organlari, boshqa tashkilotlar bilan tuziladigan mehnat va ijtimoiy-iqtisodiy masalalarga oid kelishuvlarni xududiy bo'linma nomidan imzolaydi;

- muassasa va tashkilotlar rahbarlaridan xodimlarning huquq va manfaatlarini kamsitadigan yoki qonun hujjatlariga zid qarorlari ijrosini to'xtatib qo'yishni yoki o'zgartirishni talab qiladi;

- xududiy bo'linma nomidan murojaatnoma va tavsiyalar yo'llaydi, muammoli vaziyatlar yuzasidan tegishli mutasaddi tashkilotlar bilan muzokaralarga kirishadi;

- xududiy bo'linma nomidan yuridik va jismoniy shaxslar bilan aloqada ishonchnomasiz harakat qiladi hamda muloqot olib boradi;

- xududiy Kengash bo'linma faoliyatini tashkil qilish bilan bog'liq lokal hujjatlarni tasdiqlaydi;

- xududiy bo'linma apparatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi, apparat xodimlari bilan mehnat shartnomalarini tuzadi va bekor qiladi, ularning vazifalarini belgilaydi, rag'batlantiradi va intizomiy jazo choralarini qo'llaydi;

- mazkur Ustavda belgilangan vakolati doirasida farmoyishlar chiqaradi;

- xududiy bo'linma nomidan ishonchnoma beradi;

- xududiy Kengash Ijroiya qo'mitasi yig'ilishini chaqiradi, muhokama qilinadigan masalalar yuzasidan yig'ilishga hujjatlar tayyorlanishi va kiritilishini nazorat qiladi;

Xududiy Kengash, xududiy Kengash Ijroiya qo'mitasi qarorlarini imzolaydi;

- xududiy bo'linma nomidan xo'jalik va boshqa shartnomalarni tuzadi;

- tasdiqlangan smetaga mulk va pul mablag'larini tasarruf etadi;

- xududiy Kengash tomonidan unga berilgan boshqa vazifalarni bajaradi.

9.12. Xududiy bo'linma faoliyatini qayta tashkil etish yoki tugatish kasaba uyushmasi Respublika kengashi Ijroiya qo'mitasining yoki xududiy bo'linma konferensiyasining qaroriga muvofiq amalga oshirilishi mumkin.

Konferensiya qarori kvorum mavjud bo'lganda, delegatlarning uchdan ikki qismi qo'llab-quvvatlaganda qabul qilingan hisoblanadi va kuchga kiradi.

Bunday holda tugatish komissiyasi tarkibi xududiy bo'linma faoliyatini tugatish haqida qaror qabul qilgan organ tomonidan tasdiqlanadi.

9.13. Xududiy bo'linma faoliyati tugatilgan holda barcha moliyaviy majburiyatlar bajarilganidan so'ng qolgan mol-mulki va mablag'lari Ustavda belgilangan maqsadlarga sarflash uchun Respublika kengashiga o'tkaziladi.

9.14. Kasaba uyushmasida kasaba uyushmasi Respublika Kengashining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo'yicha mas'ul tashkilotchilari lavozimlari joriy etilishi mumkin;

- Kasaba uyushmasi Respublika Kengashining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo'yicha mas'ul tashkilotchisi lavozimi

(keyingi matnlarda "mas'ul tashkilotchi" deb yuritiladi) kasaba uyushmasi Respublika Kengashi Ijroiya qo'mitasi qarori bilan joriy etiladi.

- mas'ul tashkilotchilar mazkur Ustav hamda Respublika Kengashi Ijroiya qo'mitasi qarori bilan tasdiqlangan "Kasaba uyushmasi Respublika Kengashining mas'ul tashkilotchisi to'g'risidagi Nizom" asosida faoliyatini amalga oshiradilar.

## X. KASABA UYUSHMASI VA UNING RAHBAR ORGANLARI

10.1. Quyidagilar kasaba uyushmasining rahbar organlari hisoblanadi:

Qurultoy — kasaba uyushmasining oliy organi;

Respublika Kengashi — Qurultoylar oralig'ida kasaba uyushmasining doimiy faoliyat yurituvchi kollegial rahbar organi;

Respublika Kengashi Ijroiya qo'mitasi — kasaba uyushmasi faoliyatiga joriy rahbarlikni amalga oshiruvchi kollegial ijroiya organi;

kasaba uyushmasi raisi — faoliyatini yakkaboshchilik asosida amalga oshiruvchi ijrochi.

Taftish komissiyasi — kasaba uyushmasining kollegial nazorat organi.

10.2. Qurultoy

Qurultoy O'zbekiston "Tadbirkorlik, biznes va xizmat ko'rsatish sohalari xodimlari kasaba uyushmasining oliy rahbar organi bo'lib, Kengash tomonidan 5 yilda kamida bir marotaba chaqiriladi. Qurultoyni chaqirish muddati vakillik me'yor, delegatlarni saylash tartibi va kun tartibi kamida 2 oy oldin Respublika Kengashi tomonidan e'lon qilinadi.

Navbatdan tashqari Qurultoy Respublika Kengashining yoki kasaba uyushmasi a'zolarining 1/3 qismining talabiga ko'ra, shuningdek, o'zi a'zo bo'lgan kasaba uyushmalari birlashmasi qaroriga muvofiq chaqirilishi mumkin. Navbatdan tashqari Qurultoyni chaqirish muddati va uning kun tartibi kamida 1 oy oldin e'lon qilinadi.

10.2.1 Qurultoy oliy rahbar organ sifatida Respublika Kengashi, Respublika Kengashi Ijroiya qo'mitasi faoliyatiga doir hamda kasaba uyushmasi masalalariga oid har qanday qarorlar qabul qilishi mumkin.

10.2.2 Qurultoy hujjatlari qaror, murojaat va rezolyutsiyalar shaklida qabul qilinadi.

10.3. Qurultoy vakolatiga quyidagilar kiradi:

Kasaba uyushmasi Respublika Kengashining hisobotini eshitish va unga baho berish;

Taftish komissiyasining hisobotini eshitish va uni tasdiqlash;

kasaba uyushmasining Ustavini qabul qilish, unga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish hamda tasdiqlash;

Taftish komissiyalari to'g'risidagi Nizomni qabul qilish hamda unga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish;

kasaba uyushmasining istiqboldagi asosiy faoliyat yo'nalishlarini belgilash;

Respublika Kengashi a'zolarini 5 yil muddatga saylash;

Taftish komissiyasi a'zolari va uning raisini muqobillik asosida 5 yil muddatga saylash;

kasaba uyushmasi raisini muqobillik asosida saylash;  
delegatlar vakolatlarini kasaba uyushmasining navbatdan tashqari  
Qurultoyigacha saqlab qolish haqida qaror qabul qilish;

kasaba uyushmasini tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish haqida qaror  
qabul qilish.

Kasaba uyushmasi raisi va uning o'rinbosarlari lavozimlariga ko'ra  
Qurultoylar delegatlari hisoblanadi.

#### 10.4. Respublika Kengashi

10.4.1. Qurultoylar oralig'ida kasaba uyushmasining saylab qo'yiladigan  
doimiy faoliyat yurituvchi rahbar organi Respublika Kengashi hisoblanadi.

Respublika Kengashi tarkibiga lavozimiga ko'ra kasaba uyushmasi raisi va  
uning o'rinbosarlari kiradi.

Respublika Kengashi Majlisi zaruriyatga ko'ra, ammo 1 yilda kamida bir  
marotaba chaqiriladi.

10.4.2. Respublika Kengashining vakolat muddati 5 yil.

10.4.3. Respublika Kengashining Majlislari Respublika Kengashi Ijroiya  
qo'mitasi qaroriga yoki Respublika Kengashi a'zolari umumiy sonining kamida  
1/3 qismining talabiga ko'ra chaqiriladi.

10.4.4. Respublika Kengashi hujjatlari qaror shaklida qabul qilinadi.

10.4.5. Respublika Kengashi Majlislarini kasaba uyushmasi raisi, u yo'q  
bo'lgan hollarda o'rinbosarlari yoki Respublika Kengashining qaroriga ko'ra uning  
a'zolaridan biri olib boradi.

10.4.6. Respublika Kengashi kollegial rahbar organ sifatida Respublika  
Kengashi Ijroiya qo'mitasi masalalariga doir qarorlar qabul qilishi mumkin.

10.4.7. Respublika Kengashi o'z faoliyati bo'yicha faqat Qurultoy oldida  
hisobdordir.

10.5. Respublika Kengashi vakolatiga quyidagilar kiradi:

Ustavda belgilangan vazifalarni va Qurultoy qarorlarini bajarish bo'yicha  
faoliyatni amalga oshirish;

o'z faoliyati to'g'risida 5 yilda kamida bir marotaba Qurultoyga hisobot  
berish;

kasaba uyushmasi raisi o'z xohishiga ko'ra yoki boshqa ishga o'tganligi  
sababli lavozimidan ozod etish haqida ariza bergan taqdirda yoki salomatligi  
yomonlashgani tufayli o'z vazifalarini bajara olmay qolgan hollarda Qurultoylar  
oralig'ida kasaba uyushmasi raisini muqobillik asosida saylash va lavozimidan ozod  
qilish;

Qurultoylar oralig'idagi davrda kasaba uyushmasi raisi lavozimidan ozod  
etilgan hollarda, Qurultoy o'tkazilguniga qadar kasaba uyushmasi raisi vazifasini  
bajarish uning o'rinbosarlaridan biriga yuklash to'g'risida qaror qabul qilish;

kasaba uyushmasi raisining o'rinbosarlarini saylash;

xodimlarning ijtimoiy-mehnat huquqlariga aloqador, jumladan, bandlik,  
mehnat munosabatlarini tartibga solish, ish haqi, mehnat sharoiti, xodimlarning  
mehnati, sog'ligini va atrof-muhitni muhofaza qilish, uy-joy va maishiy turmush  
sharoiti, madaniy xizmat ko'rsatish, xodimlarning ijtimoiy kafolatlari masalalari



bo'yicha takliflarni ishlab chiqish va ularni qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda mustahkamlash yuzasidan faoliyat yuritish;

mahalliy va xalqaro kasaba uyushmalari tashkilotlariga (Birlashmalariga) ixtiyoriy ravishda a'zo bo'lish va a'zolikdan chiqish to'g'risida qaror qabul qilish;

o'z faoliyati to'g'risida kasaba uyushmasi a'zolarini muntazam ravishda, ammo bir yilda kamida bir marta xabardor qilib borish;

kasaba uyushmasi mulkiga egalik qilish, foydalanish, tasarruf etish masalalari yuzasidan qarorlar qabul qilish;

Qurultoy, shu jumladan navbatdan tashqari Qurultoyni chaqirish to'g'risida qaror qabul qilish, Qurultoyga hisobot ma'ruzasi va ma'ruzachini tasdiqlash;

kasaba uyushmasi bo'linmalari rahbarlarining kasaba uyushmasi organlari qarorlarining bajarilishi to'g'risidagi hisobotlarini tinglash;

Respublika Kengashi Ijroiya qo'mitasining son tarkibini belgilash va 5 yil muddatga Respublika Kengashi Ijroiya qo'mitasi a'zolarini saylash;

o'zi a'zo bo'lgan kasaba uyushmalari birlashmasi oliy organi (Qurultoyi)ga delegatlar hamda ushbu birlashmaning saylanadigan organi tarkibiga vakillarni saylash;

Qurultoylar oralig'idagi davrda, kasaba uyushmasi Respublika Kengashi a'zolari a'zolikdan ozod etilgan hollarda, Qurultoy o'tkazilguniga qadar muddatga, yangi a'zolarini saylash, tarkibdan chiqarish, shuningdek, belgilangan me'yor asosida to'g'ridan-to'g'ri Respublika Kengashi a'zolariga saylanganlarning vakolatlarini tasdiqlash.

Ushbu Ustavning 16.1 bandiga binoan, Qurultoy bergan vakolatga asosan Qurultoylar oralig'ida mazkur Ustav va kasaba uyushmasining "Taftish komissiyasi to'g'risida"gi Nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritadi.

Respublika Kengashi Ustav maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, vakolati doirasida boshqa vazifalarni ham bajaradi.

#### 10.6. Respublika Kengashi Ijroiya qo'mitasi

10.6.1. Respublika Kengashi Ijroiya qo'mitasi kasaba uyushmasining saylab qo'yiladigan kollegial ijroiya organi hisoblanib, kasaba uyushmasi faoliyatiga joriy rahbarlikni amalga oshiradi hamda Qurultoy va Respublika Kengashining vakolatlaridan tashqari kasaba uyushmasining barcha masalalariga doir qarorlar qabul qiladi.

10.6.2. Respublika Kengashi Ijroiya qo'mitasi tarkibiga lavozimiga ko'ra kasaba uyushmasi raisi va uning o'rinbosarlari kiradi. Respublika Kengashi Ijroiya qo'mitasining qolgan a'zolari, Respublika Kengashi Majlisida saylanadi. Shuningdek, Ijroiya qo'mita tarkibiga O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi tomonidan vakil qilingan 1 (bir) nafar a'zo kiritiladi.

Respublika Kengashi Ijroiya qo'mitasi yig'ilishi zaruriyatga qarab, ammo har chorakda kamida bir marotaba o'tkaziladi.

10.7. Respublika Kengashi Ijroiya qo'mitasi o'z vakolati doirasida harakat qilib:

O'zbekiston Respublikasi Hukumati, O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi va ish beruvchilarning Birlashmalari o'rtasida tuzilgan Bosh



Kelishuvga asoslangan holda tegishli vazirlik va xo'jalik boshqaruv organlari bilan hamkorlikda tarmoq kelishuvlarini tuzishga erishadi;

xodimlarning ijtimoiy-mehnat huquqlari va manfaatlariga doir masalalarni qonunlar va boshqa normativ huquqiy hujjatlarda mustahkamlab qo'yish yuzasidan takliflar ishlab chiqadi va faoliyat olib boradi;

ish beruvchilar, ularning Birlashmalari tomonidan mehnat va kasaba uyushmalari to'g'risidagi qonunlarga rioya etishlarini nazorat qilib boradi, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etishni talab qiladi;

aholining bandlik darajasini tahlil qilish, ishsizlikni kamaytirish, vaqtincha ishsizlarni ijtimoiy himoyalashga qaratilgan dasturlarni ishlab chiqishda davlat organlariga ko'maklashadi;

ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarning ishlab chiqilishi va amalga oshirilishida ishtirok etadi, kasaba uyushmasi harakatiga doir muhim masalalar bo'yicha qaror, bayonot va murojaatnomalar qabul qiladi;

kasaba uyushmasi a'zolari tomonidan ilgari surilgan himoya talablarini davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, shuningdek, sud organlarida o'z vakili orqali qo'llab-quvvatlaydi, xodimlarning huquq hamda manfaatlarini ifoda etish va himoya qilish uchun qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan huquqlaridan foydalanadi;

belgilangan tartibda kasaba uyushmasiga kiritilgan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini kelishib oladi;

Respublika Kengashi Majlisini chaqiradi, uning kun tartibi va o'tkazish joyi yuzasidan takliflar kiritadi, muhokama qilinayotgan masalalarga oid hujjatlarni taqdim etadi, qabul qilingan qarorlarning bajarilishi va nazoratini tashkil qiladi;

kasaba uyushmasi a'zolari, kasaba uyushmasi tashkilotlarining umumiy vazifalarni bajarish borasidagi harakatlarini birlashtiradi va muvofiqlashtiradi, kasaba uyushmasi respublika miqyosidagi tadbirlarini o'tkazadi;

kasaba uyushmasiga yangi a'zolari qabul qilish, shuningdek, a'zolikdan chiqarish masalalarini hal qiladi;

kasaba uyushmasi qo'mitasi, kasaba uyushmasi Birlashgan qo'mitasi va xududiy bo'linmalar to'g'risida nizomlarni tasdiqlaydi;

kasaba uyushmasi Birlashgan qo'mitasi, tuman (shahar), xududiy bo'linmalarini tashkil etish, qaytatashkil etish, birlashtirish va tugatish to'g'risida qarorlar qabul qiladi va ular faoliyatini muvofiqlashtiradi;

kasaba uyushmasi a'zolik badallari tushumini foizlar hisobida taqsimlanish me'yorlarini belgilaydi;

kasaba uyushmasining faoliyati bilan bog'liq turli yo'nalishlardagi inspeksiya, birlashma, kengash, komissiya va boshqalarni tuzish bo'yicha qarorlar qabul qiladi;

quyi kasaba uyushmasi tashkilotlarining so'roviga asosan, ularga markazlashgan holda tovar moddiy boyliklarni xarid qiladi;

yillik statistik hisobotlarni tasdiqlaydi;

kasaba uyushmasi xodimlari, a'zolari va faollarini Davlat mukofotlari bilan mukofotlash haqida o'zi a'zo bo'lgan kasaba uyushmasi birlashmasiga iltimosnoma kiritadi;



kasaba uyushmasi esdalik va ko'krak nishoni, Faxriy yorlig'i, Faxriy unvonlarini ta'sis etadi, ular to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlaydi, taqdirlash to'g'risida qarorlar qabul qiladi;

quyi kasaba uyushmasi tashkilotlarining saylab qo'yiladigan rahbarlik lavozimlariga nomzodlarni tavsiya etadi;

kasaba uyushmasi Emblemasi va bayrog'ini tasdiqlaydi;

boshqa mamlakatlarning kasaba uyushmalari tashkilotlari, shuningdek, xalqaro tashkilotlar bilan xalqaro aloqalarni rivojlantiradi, ularning ish tajribasini o'rganadi, o'z faoliyatini targ'ib qiladi;

kasaba uyushmasi nomidan xalqaro shartnoma, bitim va Memorandumlar imzolaydi;

bir yilda kamida bir marta o'z faoliyati to'g'risida Respublika Kengashiga hisobot beradi;

kasaba uyushmasi faoliyatining barcha yo'nalishlari bo'yicha uslubiy tavsiyalar ishlab chiqadi;

kasaba uyushmasi a'zolari va faollarini o'qitish borasidagi ishlarini tashkil qiladi, yo'naltiradi va muvofiqlashtiradi;

belgilangan vakolatlar doirasida kasaba uyushmalari mulkini tasarruf etish tartibiga oid qarorlar qabul qiladi;

kasaba uyushmasi va uning bo'linmalari, shuningdek, uning tasarrufidagi korxonalar va tashkilotlar pul mablag'lari va mol-mulkini boshqaradi;

yangi ish o'rinlarini yaratish maqsadida, olingan daromad faqat mazkur Ustavda belgilangan maqsadlarga yo'naltirilishi sharti bilan, o'zi ta'sis qilgan (tasarrufiga olgan) tashkilotlar, korxonalar orqali yoxud qonun hujjatlarida ta'qiqlanmagan boshqa tadbirkorlik faoliyatini olib boradi;

kasaba uyushmasi tasarrufidagi muassasa, tashkilot va korxonalarni tashkil etish, boshqa mulk shakliga aylantirish, qayta tashkil qilish, ijaraga berish va tugatish to'g'risida qarorlar qabul qiladi, ularning faoliyatini yo'naltiradi va nazorat qiladi;

kasaba uyushmasi Respublika Kengashi apparati daromadlar va xarajatlar smetasini tasdiqlaydi;

korxonalar, tashkilotlar, muassasalarga homiylik va moliyaviy yordamlar ko'rsatish masalasini ko'rib chiqadi;

quyi kasaba uyushmasi tashkilotlari tomonidan kasaba uyushmasi Respublika Kengashi apparatiga hisobotlar topshirish tartibini, ularni taqdim etish davriyligini belgilaydi;

kasaba uyushmasi bo'linmalari va tasarrufidagi tashkilotlarining hisobotlarini tinglaydi;

boshlang'ich kasaba uyushmasi tashkilotlarining hisobini yuritadi;

barcha quyi kasaba uyushmasi tashkilotlari, qarorlarida qonunbuzilishi holatlari mavjud bo'lsa 10 kun muddatda qayta ko'rib chiqish va qonunga muvofiqlashtirish bo'yicha qaror qabul qiladi;

o'z faoliyatida kamchiliklarga yo'q qo'ygan kasaba uyushmasi bo'linmalari, kasaba uyushmasi tasarrufidagi korxonalar va tashkilotlar rahbar va mas'ul shaxslariga nisbatan vakolat doirasida chora ko'radi;

kasaba uyushmasi Respublika Kengashi apparati ish rejasini tasdiqlaydi;

kasaba uyushmasi Respublika Kengashi apparatining tuzilmasini va shtatlar jadvalini tasdiqlaydi;

kasaba uyushmasi raisiga alohida vakolatlar bera oladi;

o'z faoliyati to'g'risida ommaviy axborot vositalari orqali jamoatchilikni xabardor qiladi.

Qurultoy va Respublika Kengashi tomonidan vakolat berilgan boshqa vazifalarni bajaradi.

#### 10.8. Kasaba uyushmasi raisi

10.8.1. Kasaba uyushmasiga rahbarlik qiladi, bir vaqtning o'zida Respublika Kengashi va Respublika Kengashi Ijroiya qo'mitasi raisi ham hisoblanadi hamda kasaba uyushmasi Respublika Kengashi apparatiga bevosita rahbarlik qiladi. Kasaba uyushmasi Ustavi va organlari qaroriga muvofiq berilgan vakolatlar doirasida kasaba uyushmasi nomidan ish ko'radi.

10.8.2. Qurultoy tomonidan muqobillik asosida 5 yil muddatga saylanadi va u bilan mehnat shartnomasini kasaba uyushmasi nomidan Qurultoy vakolat bergan shaxs imzolaydi.

#### 10.8.3. Kasaba uyushmasi raisi:

Kasaba uyushmasi Ustavi bo'yicha vazifalarini, shuningdek, kasaba uyushmasi organlari qarorlarining bajarilishini tashkil etadi va ular oldida hisobdordir;

O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati organlari, o'zini o'zi boshqarish organlari, ish beruvchilar, jamoat birlashmalari, boshqa tashkilotlarda, ommaviy axborot vositalari, shuningdek, xorijiy mamlakatlar va xalqaro tashkilotlarda kasaba uyushmasi nomidan qatnashadi;

davlat va xo'jalik boshqaruv organlari, ish beruvchilar, jamoat birlashmalarining (ittifoqlarining, uyushmalarining) ochiq hay'at majlislarida kasaba uyushmasi nomidan ishtirok etadi;

ishonchnomasiz kasaba uyushmasi nomidan ish ko'radi;

belgilangan tartibda kasaba uyushmasi bilan kelishish uchun kiritilgan normativ va normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini kasaba uyushmasi nomidan kelishish tariqasida imzolaydi yoki o'z taklif va e'tirozlarini bildiradi;

Respublika Kengashi va Taftish komissiyasining qo'shma Majlislarini o'tkazadi;

zarur hollarda kasaba uyushmasi nomidan bayonotlar beradi, murojaatnoma va taqdimnomalar yuboradi;

mehnat va ijtimoiy-iqtisodiy masalalar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi qonunlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlari hamda davlat dasturlari loyihalarini ishlab chiqish, ko'rib chiqish va jamoatchilik ekspertizasidan o'tkazishda kasaba uyushmasining vakillari ishtirokini ta'minlaydi;

O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga zid keladigan, xodimlarning ijtimoiy-iqtisodiy huquq va manfaatlariga taalluqli bo'lgan hamda texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarda aniqlangan qonunbuzilishlarini bartaraf etish to'g'risida, davlat hokimiyati va boshqaruv organlariga ko'rib chiqilishi majburiy bo'lgan ko'rsatmalar kiritishga, shuningdek, ish beruvchi va

ularning birlashmalariga, tashkilotlarning rahbarlariga mazkur qoidabuzarliklarda aybdor bo'lgan shaxslarni intizomiy javobgarlikka tortish haqida taqdimnomalar kiritadi;

kasaba uyushmalari xodimlari va faollarini qo'shimcha rag'batlantirish masalalarini ko'rib chiqadi;

kasaba uyushmasi byudjetidan, xodimlar va ularning oila a'zolarini sog'lomlashtirishga, ma'naviyat va jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga ajratilgan mablag'lar ijrosini ta'minlaydi, shuningdek, kasaba uyushmasi Respublika Kengashi apparatining moliyaviy xo'jalik faoliyatini boshqaradi;

kasaba uyushmasi raisi o'rinbosarlarini saylash yoki lavozimidan ozod etish bo'yicha Respublika Kengashi Ijroiya qo'mitasiga takliflar kiritadi;

kasaba uyushmasi raisi o'rinbosarlari o'rtasida vazifalarni taqsimlaydi;

kasaba uyushmasi Respublika Kengashi apparatining xodimlari bilan mehnat shartnomalarini tuzadi va bekor qiladi, ularning vazifalarini belgilaydi, ularga nisbatan rag'batlantirish va intizomiy jazo choralarini qo'llaydi;

quyi kasaba uyushmasi tashkilotlarining saylab qo'yiladigan rahbarlik lavozimlariga nomzodlarni tavsiya qiladi;

o'z faoliyatida kamchiliklarga yo'l qo'ygan kasaba uyushmasi bo'linmalari rahbar va mas'ul shaxslariga nisbatan vakolat doirasida chora ko'rish bo'yicha Respublika Kengashi Ijroiya qo'mitasiga yoki tegishli kasaba uyushmasi bo'linmasi organlariga taklif kiritadi yoxud Taftish komissiyasiga o'rganish bo'yicha murojaat etadi;

kasaba uyushmasi tomonidan ta'sis etilgan tashkilotlarga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi, ularning rahbarlari bilan belgilangan tartibda mehnat munosabatlarini o'rnatadi;

chet el xizmat safariga boradiganlar nomzodlarini ko'rib chiqadi va tasdiqlaydi;

mazkur Ustavda belgilangan vakolati doirasida farmoyishlar chiqaradi;

kasaba uyushmasi nomidan ishonchnoma beradi;

Respublika Kengashi Ijroiya qo'mitasini chaqiradi, muhokama qilinadigan masalalar yuzasidan hujjatlar tayyorlanishini tashkillashtiradi, yig'ilishga masalalarni kiritadi, qabul qilingan qarorlar ijrosini ta'minlaydi va nazorat qiladi;

Respublika Kengashi va Respublika Kengashi Ijroiya qo'mitasi qarorlarini imzolaydi;

kasaba uyushmasi nomidan xo'jalik shartnomalari va boshqa shartnomalarni imzolaydi;

Qurultoy, Respublika Kengashi va Respublika Kengashi Ijroiya qo'mitasi tomonidan berilgan vakolatlar doirasida boshqa tashkiliy boshqaruv, ma'muriy-xo'jalik ishlariga oid vazifalarni ham amalga oshiradi;

Kasaba uyushmasi tuzilmasidagi boshlang'ich, Birlashgan, tuman (shahar), viloyat xududiy kasaba uyushmasi bo'linmalari raislariga o'z faoliyatlarini O'zbekiston Respublikasi qonunlari, kasaba uyushmasi Ustavi, yuqori rahbar organlari qarorlari va kasaba uyushmasi Respublika Kengashi Ijroiya qo'mitasi tomonidan tasdiqlangan, kasaba uyushmasi tashkilotlari to'g'risidagi Nizomlarga muvofiq amalga oshirmagan hollarda ularga nisbatan mehnat qonunchiligi asosan

kasaba uyushmasining yuqori organlari raisi sifatida to'g'ridan-to'g'ri intizomiy choralar ko'radi;

o'zining ayrim vakolatlarini o'rinbosarlariga berishi mumkin.

10.8.4. Rais qarori farmoyish shaklida qabul qilinadi. Kasaba uyushmasi raisi kasaba uyushmasi Respublika Kengashi apparati xodimlari, quyi kasaba uyushmasi tashkilotlari, kasaba uyushmasi tasarrufidagi tashkilotlar rahbarlari tomonidan bajarilishi shart bo'lgan qonuniy farmoyishlar berish huquqiga ega.

10.8.5. Qurultoylar oralig'ida kasaba uyushmasi raisining vakolatini belgilangan muddatdan ilgari to'xtatish va lavozimdan ozod etish to'g'risida qaror Respublika Kengashining Majlisida, uning oralig'ida esa Ijroiya qo'mita tomonidan qabul qilinishi mumkin.

#### 10.9. Taftish komissiyasi

10.9.1. Taftish komissiyasi kasaba uyushmasining taftish organi hisoblanib, kasaba uyushmasi va uning tashkilotlari Ustav talablari, Qurultoy, Respublika Kengashi, Respublika Kengashi Ijroiya qo'mitasi qarorlari va tizimda amalda bo'lgan Nizom, tartib, yo'riqnoma va normativ hamda normativ-huquqiy hujjatlarga rioya etilishi, mulkdan samarali foydalanilishini tekshiradi, taftishdan o'tkazadi va nazorat qiladi.

Taftish komissiyasining xarajatlari, kasaba uyushmasining Respublika Kengashi hamda tegishli kasaba uyushmalari organlari tomonidan belgilangan tartibda moliyalashtiriladi.

10.9.2. Taftish komissiyasi Respublika Kengashi shakllantiriladigan tartibda va uning vakolat muddatiga teng muddatda Qurultoyda saylanadi. Taftish komissiyasining faoliyati Qurultoy qaroriga ko'ra yoki kasaba uyushmasining faoliyati to'xtatilgan taqdirda to'xtatiladi.

Taftish komissiyasi o'z faoliyatida mustaqil bo'lib, Qurultoy oldida hisobdordir.

Qurultoylar oralig'ida zarurat tug'ilganda Taftish komissiyasi a'zolari tarkibiga o'zgartirish kiritish Respublika Kengashi va Taftish komissiyasining qo'shma Majlisi qarori bilan amalga oshiriladi.

10.9.3. Taftish komissiyasi quyi kasaba uyushmasi tashkilotlarini taftish qilish huquqiga ega.

10.9.4. Kasaba uyushmasi Taftish komissiyasining faoliyati Qurultoy tomonidan tasdiqlanadigan "O'zbekiston tadbirkorlik, biznes va xizmat ko'rsatish sohalari xodimlari kasaba uyushmasi taftish komissiyalari to'g'risida"gi Nizomga asosan amalga oshiriladi.

#### 10.10. Kasaba uyushmasi Respublika Kengashi apparati

10.10.1. Kasaba uyushmasi Respublika Kengashi apparati kasaba uyushmasi organlari maqsadlari va vazifalarini amalga oshirish uchun shakllantiriladi va doimiy asosda faoliyat yuritadi.

10.10.2. Kasaba uyushmasi Respublika Kengashi apparati o'z faoliyatini Respublika Kengashi Ijroiya qo'mitasi tomonidan tasdiqlanadigan reglament asosida amalga oshiradi.

## XI. QURULTOYLAR, KONFERENSIYALAR, SAYLANGAN RAHBAR ORGANLAR MAJLISLARI, UMUMIY YIG'ILISHLARNING VAKOLATLI BO'LISHI, ULARDA QARORLAR QABUL QILISH

11.1. Kasaba uyushmasi Qurultoylari, xududiy, tuman (shahar) va kasaba uyushmasi xududiy bo'linmalarining konferensiyalari ularga saylangan delegatlar umumiy sonining 2/3 qismi ishtirok etganda vakolatli hisoblanadi. Kasaba uyushmasi Qurultoyi delegatlarining vakolatlari Kengash Ijroiya qo'mitasi tomonidan tasdiqlanadi.

11.2. Respublika Kengashi, xududiy va tuman (shahar) kasaba uyushmasi tashkilotlari Kengashlari, ularning Ijroiya qo'mitalari, kasaba uyushmasi Birlashgan qo'mitasining Majlis (yig'ilish)lari mazkur saylab qo'yiladigan organlar a'zolarining yarmidan ko'pi ishtirok etgan taqdirda huquqli hisoblanadi.

11.3. Kasaba uyushmasi Qurultoyi, xududiy, tuman (shahar) va kasaba uyushmasi Birlashgan qo'mitasining konferensiyasi, Respublika Kengashi va uning Ijroiya qo'mitasi, xududiy va tuman (shahar) kasaba uyushmasi tashkilotlari Kengashlari va ularning Ijroiya qo'mitalarining Majlis (yig'ilish)lari kvorum mavjud bo'lgani holda ularda qatnashayotgan delegatlar, saylab qo'yiladigan organlar a'zolarining yarmidan ko'pi yoqlab ovoz berganda qaror qabul qilingan hisoblanadi.

11.4. Ovoz berish shakli Qurultoy, konferensiya delegatlari; saylab qo'yiladigan organ a'zolari tomonidan belgilanadi.

11.5. Qurultoy, konferensiya, saylab qo'yiladigan organ Majlislarida muhokama etilgan masalalar yuzasidan qarorlar qabul qilinadi va vakolati bo'yicha bayonnomalar rasmiylashtiriladi.

11.6. Kasaba uyushmasining saylanadigan rahbar organlariga ish beruvchilar yoki davlat organlarining mansabdor shaxslari a'zo bo'lishlari mumkin emas.

11.7. Kasaba uyushmasi kollegial organlarining ish tartibi Ijroiya qo'mita tomonidan tasdiqlanadigan Reglament asosida belgilanadi.

11.8. Zarur hollarda kasaba uyushmasi Qurultoyi, birlashgan qo'mita (boshlang'ich tashkiloti), tuman, xududiy bo'linmalar konferensiyalari va ularning kollegial organlari majlislari videokonferensaloqa tartibida o'tkazilishi mumkin.

11.9. Tezkor ravishda hal qilinishi lozim bo'lgan masalalar bo'yicha Respublika kengashi, Ijroiya qo'mita, birlashgan qo'mitalar, tuman, xududiy bo'linmalar kollegial organlarining qarorlari ularning loyihalariga rozilik belgisi (viza) qo'yish orqali, jumladan, elektron raqamli imzo, pochta, telegraf, teletayp, faks, elektron va boshqa aloqa vositalaridan foydalangan holda, so'rov yo'li bilan qabul qilinishi mumkin.

## XII. TIZIMDA HISOBOT-SAYLOVLARNI O'TKAZISH VA KASABA UYUSHMASI TASHKILOTLARI ORGANLARINING VAKOLAT MUDDATLARI

12.1. Tarmoq kasaba uyushmasi tizimidagi boshlang'ich tashkilotlar, birlashgan qo'mitalar, tuman (shahar) va xududiy bo'linmalarda hisobot-saylov

yig'ilishlari, konferensiyalari, shuningdek kasaba uyushmasining Qurultoyi, O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining vakolatli organi qarori asosida Respublika Kengashi (Ijroiya qo'mita) qarori bilan belgilangan muddatlarda o'tkaziladi.

Mazkur jarayonda saylangan kasaba uyushmasi guruhi tashkilotchilari, sex qo'mitalari raislari, kasaba uyushmasi tashkilotchilari, boshlang'ich tashkilotlar, birlashgan qo'mitalar, tuman va xududiy bo'linmalar, shuningdek kasaba uyushmasining kollegial rahbar, ijroiya va nazorat organlari, ularning raislari hamda rais o'rinbosarlari vakolat muddati 5 yil.

12.2. Hisobot-saylovlari oralig'ida tashkil etilgan boshlang'ich tashkilotlar, birlashgan qo'mitalar, tuman (shahar) va xududiy bo'linmalarda navbatdagi hisobot-saylov jarayonida, umumiy tartibda, hisobot-saylov yig'ilishlari, konferensiyalari o'tkaziladi va kollegial rahbar, ijroiya, nazorat organlari, shuningdek ularning raislari (rais o'rinbosarlari) saylanadi.

Ushbu qoida navbatdagi hisobot-saylovlar oralig'ida boshlang'ich tashkilotlar, birlashgan qo'mitalar, tuman va xududiy bo'linmalarning kollegial rahbar, ijroiya, nazorat organlari tarkibiga saylangan a'zolariga, shuningdek ularning raislari (rais o'rinbosarlari)ga nisbatan ham tatbiq etiladi.

Kollegial organ raisi bilan mehnat shartnomasini bekor qilish to'g'risidagi farmoyish vakolatli organ vakolat bergan shaxs tomonidan imzolanadi. Rais o'rinbosari (rais o'rinbosarlari) bilan mehnat shartnomasini bekor qilish to'g'risidagi farmoyish rais tomonidan imzolanadi. Rais va rais o'rinbosari (o'rinbosarlari) bir vaqtda lavozimdan ozod etish to'g'risida ariza bergan bo'lsalar vakolatli organ vakolat bergan shaxs tomonidan imzolanadi.

12.3. Favqulotda holatlar yoki qonunchilikda belgilangan boshqa cheklovlar joriy qilinganda, shuningdek boshqa vaziyatlarda kasaba uyushmasi Respublika Kengashi (Ijroiya qo'mitasi)ning qaroriga muvofiq boshlang'ich tashkilotlar, birlashgan qo'mitalar, tuman (shahar) va xududiy bo'linmalar, shuningdek kasaba uyushmasi rahbar, ijroiya va nazorat organlarining, ularning rahbarlari hamda rahbar o'rinbosarlarining vakolat muddatlari uzaytirilishi mumkin.

### **XIII. XODIMLAR VA MEHNAT MUNOSABATLARI**

13.1. Kasaba uyushmasi organlari jumladan, quyi tashkilotlar organlari, kasaba uyushmasining saylab qo'yiladigan lavozimlariga saylangani munosabati bilan ishlab chiqarishdagi ishidan ozod etilgan shaxslar, shuningdek, kasaba uyushmasi xodimlari bilan mehnat munosabatlari, mehnat to'g'risidagi qonunlar, jamoa shartnomalari va kelishuvlari va boshqa normativ hujjatlar bilan tartibga solinadi.

13.2. Lavozimga saylangani munosabati bilan ishlab chiqarishdagi ishidan ozod etilgan xodimlar bilan tegishli saylangan organning vakolat muddatiga teng muddatga mehnat shartnomalari tuziladi.

13.3. Shtatdagi kasaba uyushmasi xodimlarining shaxsiy hujjatlari yig'majildi va mehnat daftarchalari xodimlar bilan mehnat shartnomasi tuzgan kasaba uyushmasi tashkilotida saqlanadi.

## XIV. MULK VA MABLAG‘LAR HAMDA ULARNI SYAKLLANTIRISH MANBALARI

14.1. Kasaba uyushmasi va uning tuzilmasidagi tashkilotlari Ustavdagi maqsad va vazifalarni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan o‘ziga tegishli mulki va mablag‘lariga egalik qiladi, ulardan foydalanadi, belgilangan tartibda sarflaydi.

Kasaba uyushmasi va uning tuzilmasidagi tashkilotlarining mulki va mablag‘lari kasaba uyushmasi a‘zolarining har oylik a‘zolik badallari, ixtiyoriy mulkiy badallar va xayriyalar, qonunlarda belgilangan tartibda tadbirkorlik, xo‘jalik va boshqa tijorat faoliyatidan olingan, ustav maqsadlariga yo‘naltiriluvchi daromadlar, ijtimoiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy, turizm, jismoniy tarbiya-sport va boshqa tadbirlarini o‘tkazish uchun yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan o‘tkaziladigan, shuningdek, qonunlarda taqiqlanmagan boshqa tushumlardan shakllantiriladi.

Kasaba uyushmasi a‘zolik badallari va boshqa manbalardan tushgan mablag‘lar madaniy-ma‘rifiy, jismoniy tarbiya, sport-sog‘lomlashtirish tadbirlari, turizm yo‘nalishiga, kasaba uyushmasi a‘zolariga moddiy yordam ko‘rsatish va rag‘batlantirish, kasaba uyushmasi organlarida ishlaydigan xodimlarga haq to‘lash va amaldagi qonunchilik doirasida boshqa Ustav maqsadlarini uchun sarflanadi.

Ish beruvchilar kasaba uyushmasi tashkilotiga turli maqsadli, jumladan, mehnat muhofazasi ta‘minlashga, madaniy-ommaviy, sport tadbirlarini o‘tkazish uchun jamoa shartnomasida belgilangan mablag‘larni o‘tkazishi mumkin.

Ish beruvchilar, korxonalar va tashkilotlar kasaba uyushmasi va uning bo‘linmalari balansiga xodimlarni qo‘llab-quvvatlash, kasaba uyushmasini rag‘batlantirish va uning salohiyatini oshirish maqsadida o‘zlarining balansida bo‘lgan ob‘ektlar, bino va inshootlar, asosiy vositalar, aktivlarni beg‘araz o‘tkazib berishi mumkin.

Kasaba uyushmasi a‘zolari va boshqa tashkilotlar kasaba uyushmasiga bergan mol-mulki va a‘zolik badallariga egalik qilish huquqini saqlab qolmaydi.

Kasaba uyushmasi va uning bo‘linmalari Ustav faoliyatini ta‘minlash uchun zarur bo‘lgan qimmatbaho qog‘oz, aksiya va boshqa mulklar sotib olish huquqiga ega.

Kasaba uyushmasi va uning bo‘linmalari belgilangan tartibda o‘zlarining mustaqil balansi, banklarda o‘z hisobvaraqlariga (shu jumladan, milliy va xorijiy valyutada) ega bo‘lishi mumkin.

14.2. Ish beruvchilar kasaba uyushmasining a‘zolari bo‘lgan xodimlarning yozma arizalari mavjud bo‘lganda kasaba uyushmasining tegishli hisobvarag‘iga xodimlarning ish haqidan ushlab qolingan kasaba uyushmasiga a‘zolik badallarini, agar jamoa shartnomasida, kelishuvida shunday qoida nazarda tutilgan bo‘lsa, o‘z vaqtida o‘tkazishi shart.

14.3. Kasaba uyushmasi a‘zolarining har oylik badallari quyidagicha yig‘iladi:

ishlovchilardan, shu jumladan, mavsumiy ishlovchilardan ish joyida barcha turdagi ish haqlari, stipendiya, mehnatga haq to‘lash fondiga kiruvchi qo‘shimcha, mukofotlaridan bir foizdan kam bo‘lmagan miqdorda;

pensionerlardan pensiya miqdorining yoki respublikada belgilangan yoshga doir eng kam pensiya miqdorining bir foizdan kam bo'lmagan miqdorida;

vaqtincha ishlamaydiganlardan mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining bir foizdan kam bo'lmagan miqdorida.

Kasaba uyushmasi a'zosi, o'zining xohishi va arizasiga asosan belgilangan miqdordan ortiq badal to'lashi mumkin.

14.4. Kasaba uyushmasi qo'shimcha moliyaviy mablag'larni ishlab topish va kelgusida ulardan kasaba uyushmasi a'zolarining mehnat, ijtimoiy-iqtisodiy huquq va manfaatlarini himoya qilish, shuningdek, qo'shimcha ish o'rinlari yaratish uchun foydalanish maqsadida, belgilangan tartibda ishlab chiqarish, xo'jalik, tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishi, sug'urta kompaniyasi va aksiyadorlik jamiyati, maqsadli jamg'armalar va boshqa tashkilotlarni tashkil etishi mumkin. Mazkur faoliyatdan tushgan daromad, shuningdek, kasaba uyushmasining mulki, pul va chet el valyutasidagi mablag'lari a'zolar o'rtasida taqsimlanmaydi va Ustav maqsadlariga sarflanadi.

14.5. Kasaba uyushmasi mablag'larini maqsadli va samarali sarflash tartibi Respublika Kengashi Majlisi qarori bilan belgilanadi. Kasaba uyushmasining barcha organlari uchun ushbu tartib bajarish uchun majburiydir. Moliyaviy intizomga amal qilmagan kasaba uyushmasi organlari rahbarlari, mas'ul shaxslari qonunda belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.

Kasaba uyushmasi va uning bo'linmalari organlari rahbarlari, mas'ul shaxslari tomonidan sodir etilgan qonunbuzilish holatlarini aniqlanganda, ushbu shaxslar hatti-harakati natijasida vujudga kelgan kamomad va majburiyatlar bo'yicha kasaba uyushmasi javobgar bo'lmaydi.

14.6. Kasaba uyushmasi Respublika Kengashi apparati, bo'linmalari (xududiy, tuman (shahar), birlashgan va boshlang'ich kasaba uyushmasi tashkilotlari) hamda tasarrufidagi korxonalar va tashkilotlarning mablag'lari va mol-mulkulari kasaba uyushmasining umumiy mulkidir.

Kasaba uyushmasi bo'linmalari va tasarrufidagi tashkilotlari faoliyati tugatilganda yoki kasaba uyushmasi a'zosi uning safidan chiqqanda kasaba uyushmasi mablag'lari va mol-mulki bo'linmaydi va qaytarilmaydi.

14.7. Kasaba uyushmasi mulki ob'ektlariga bino, inshoot, er uchastkalari, mexanizmlar, jihozlar, transport va texnika vositalari, madaniy-ma'rifiy, jismoniy tarbiya, sport va sog'lomlashtirish maqsadlariga mo'ljallangan mulk, turar joylar va yashash uchun mo'ljallanmagan joylar, mablag'lar, shu jumladan, chet el valyutasidagi mablag'lari, qimmatbaho qog'ozlar, korxonalar va xo'jaliklar, ommaviy axborot vositalari, bosmaxonalar, sanatoriy-kurort, dam olish uyi, sog'lomlashtirish, sport, o'quv muassasalari, bolalar sog'lomlashtirish oromgohlari, intellektual mulk, shuningdek, qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa mol-mulkular kiradi.

14.8. Kasaba uyushmasining mulki daxlsizdir va u qonun bilan qo'riqlanadi. Uning mol-mulki natsionalizasiya, rekvizitsiya va musodara qilinmaydi, qonunda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

14.9. Kasaba uyushmasi o'z mulkiga nisbatan qonunga va boshqa huquqiy hujjatlarga zid bo'lmagan har qanday harakatlarni amalga oshirishga, jumladan,

homiylilik va moliyaviy yordam mablag'larini ajratishga, o'z mulkini ajratib berish, mulkka egalik qilish va undan foydalanish huquqini boshqa shaxslarga berish, sotish, mulkni garovga qo'yish va undan boshqacha tarzda foydalanishga haqli.

Kasaba uyushmasi mulkning shaklini o'zgartirish, tasarruf etish masalasi qonun bilan o'rnatilgan tartibda, mazkur Ustavda belgilangan vakolatlar doirasida kasaba uyushmasi Respublika Kengashi Ijroiya qo'mitasi tomonidan hal etiladi.

14.10. Kasaba uyushmasi mulkning ishonchli boshqaruv uchun boshqa shaxsga (ishonchli boshqaruvchiga) berilishi, mulkiy huquqlarning o'tishiga asos bo'lmaydi, ishonchli boshqaruvchi kasaba uyushmasi manfaatlarini hisobga olib mulkni boshqarishi shart.

14.11. Kasaba uyushmasi, uning bo'linmalari va tasarrufidagi tashkilotlari kasaba uyushmasi Respublika Kengashi Ijroiya qo'mitasi qarori (ruxsati) bilan yoki vakolat berilgan kasaba uyushmasi bo'linmasi Kengashi Ijroiya qo'mitasi qarori (ruxsati) bilan mol-mulk va aktivlar (bino va inshootlar, qurilmalar, avtotransport vositalari, turli qimmatbaho apparatura va texnika vositalari va hokazo)ni sotib olishi mumkin.

14.12. Kasaba uyushmasi bo'linmalari balansidagi aktivlari va mol-mulklar ustidan joriy boshqaruvni (egalik qilish huquqsiz) amalga oshiradi.

Kasaba uyushmasi mol-mulkleri va aktivlari (bino va inshootlar, qurilmalar, avtotransport vositalari, turli qimmatbaho apparatura va texnika vositalari va hokazo) kasaba uyushmasi Respublika Kengashi Ijroiya qo'mitasi qarori bilan hisobdan chiqarilishi, sotilishi, ijaraga yoki vaqtincha foydalanishga yoxud beg'araz berilishi mumkin.

## **XV. KASABA UYUSHMASINING HISOB VA HISOBOTI**

15.1. Kasaba uyushmasi o'z faoliyatining natijalari hisobini yuritadi hamda ro'yxatdan o'tkazuvchi, davlat soliq va statistika organlariga belgilangan tartibda hisobotlar taqdim etadi.

15.2. Barcha kasaba uyushmasi organlari o'zlarini saylagan organlar hamda a'zolar oldida hisob berib boradilar.

## **XVI. KASABA UYUSHMASINING YURIDIK SHAXS SIFATIDAGI HUQUQLARI**

16.1. Kasaba uyushmasi yuridik shaxs hisoblanadi va o'z muhri, shtampi, blanklariga hamda soliq organlarida soliq to'lovchi identifikatsiya raqami, banklarda belgilangan namunadagi o'z hisob raqamlariga ega.

16.2. Kasaba uyushmasining yuridik shaxs sifatidagi huquq va majburiyatlari Ustavda belgilangan vakolatlar doirasida kasaba uyushmasi organlari va mansabdor shaxslari tomonidan amalga oshiriladi.

16.3. Kasaba uyushmasi belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan o'z ramzlari (timsoli)ga ega bo'lishi mumkin.

## XVII. KASABA UYUSHMASI USTAVIGA O'ZGARTIRISH VA QO'SHIMCHALAR KIRITISH TARTIBI

17.1. Ushbu Ustavga kasaba uyushmasi Qurultoyi tomonidan, Qurultoy oralig'ida esa Respublika Kengashi tomonidan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

17.2. Kasaba uyushmasi Ustaviga o'zgarish, qo'shimcha va tuzatishlar kiritilganda kasaba uyushmasi belgilangan tartibda qayta ro'yxatdan o'tkaziladi.

## XVIII. KASABA UYUSHMASINI QAYTA TASHKIL ETISH VA TUGATISH TARTIBI

18.1. Kasaba uyushmasini qayta tashkil etish (qo'shib yuborish, qo'shib olish, bo'lish, ajratish, o'zgartirish) yoki tugatish Qurultoy yoki sud qaroriga asosan amalga oshiriladi. Kquorum mavjud bo'lgan holda Qurultoyda qatnashayotgan delegatlarning 2/3 qismi yoqlab ovoz berganda, qaror qabul qilingan deb hisoblanadi.

Kasaba uyushmasini qayta tashkil etish qonunda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

18.2. Kasaba uyushmasini tugatish haqida qaror qabul qilingan taqdirda, tugatuvchi organ qonunchilikda belgilangan tartibda tugatish komissiyasini tayinlaydi, shuningdek, kreditorlar talablari qanoatlantirilgandan so'ng qolgan mulkni kasaba uyushmasi Ustaviga muvofiq maqsadlarga yo'naltiriladi.

18.3. Kasaba uyushmasi tugatilgan holda uning hujjatlari belgilangan tartibda davlat arxivi tashkilotlariga saqlash uchun topshiriladi.

## XIX. YAKUNIY QOIDALAR

19.1. Mazkur Ustav talablarini bajarish kasaba uyushmasi tizimidagi tashkilotlar uchun majburiydir. Ushbu Ustav qoidalarini O'zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlariga zid tarzda talqin qilish mumkin emas.

19.2. Mazkur Ustav bo'yicha yuqori turuvchi organ qaror qabul qilish davomida bo'ysunuv bo'yicha quyi turuvchi organ vakolatlariga doir masalalarni ham hal etishi mumkin.

Yuqori turuvchi organ bo'ysunuv bo'yicha quyi turuvchi organning qonun va mazkur Ustav talablariga zid qarorlarini qayta ko'rib chiqish uchun tegishli organ yoki vakolatli shaxsga yuborishi, kollegial organlar vakolatiga doir masalalar yuzasidan esa uning navbatdan tashqari yig'ilishini belgilangan tartibda chaqirishi mumkin.

19.3. Kechiktirib bo'lmaydigan hollarda quyi turuvchi organning qonun va Ustav talablariga zid qarorlari yuqori turuvchi organ tomonidan qisman yoki to'liq bekor qilinishi mumkin.

Raislik qiluvchi

U.Muxamedov



40 баракдан номери

